O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“INVESTITSIYA VA INNOVATSIYALAR” KAFEDRASI

“YASHIL IQTISODIYOTDA INNOVATSION VA INVESTITSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

(2025 yil 24-25 oktabr)



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“INVESTITSIYA VA INNOVATSIYALAR” KAFEDRASI

“YASHIL IQTISODIYOTDA INNOVATSION VA INVESTITSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

(2025 yil 24-25 oktabr)

SAMARQAND 2025

UO'K:330.322:330.15
B 49
KBK: 65.9(5O')-56

"Yashil iqtisodiyotda innovatsion va investitsion faoliyatni rivojlantirish: muammo va yechimlar". 2025-yil 24-25 oktabr, Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumani materiallari – Samarqand: SamISI, 2025 - 910 bet.

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi: assistent D.A.Miyassarov.

Nashr uchun mas'ullar:

A.Bektemirov - iqtisodiyot fanlari doktori, prof., N.H.Ruzibayeva - dotsent, PhD, A.A.Turayev - dots.v.b., PhD, A.A.Bekmurodov - dots.v.b., PhD, S.N.Baratov dots.v.b., PhD, B.M.Quliyev - dots.v.b., PhD, O.Y.Ashurova - katta o'qituvchi, G.T. D.F.Nasirov - katta o'qituvchi, G.T.Qarajanova - katta o'qituvchi, E.A.Nozimov - katta o'qituvchi, Z.X.Rafiyeva - assistent, G.A.Xolmirzayeva - assistent, M.S Qarshiyeva - assistent, Y.J.Xaknazarova - assistent, A.A.Axrorov - assistent.

Sahifalovchilar: O.Yu.Ashurova, A.A.Turayev, E.A.Nozimov, G.T.Qarajanova, Z.X.Rafiyeva, M.S Qarshiyeva, G.A.Xolmirzayeva,

"Yashil texnologiyalarga investitsiyalar: barqaror rivojlanish yo'lidagi muammolar va imkoniyatlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallarida yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish tendensiyalari va strategiyalarini ishlab chqishga, energiya tejamkor va ekologik toza ishlab chiqarishda yashil texnologiyalar va ularni rivojlantirishga, yashil iqtisodiyotda investitsion va innovatsion faollikni oshirishdagi muammo va yechimlarga, yashil texnologiyalarni rivojlantirishda inson kapitali va uning sifatini oshirishga, yashil texnologiyalarni moliyalashtirish manbalari ko'lamini kengaytirish va samaradorligini oshirishning dolzarb masalalariga hamda bu yo'nalishdagi mavjud muammolarni aniqlashga va ularning yechimlariga bag'ishlangan ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarga boy maqola va ma'ruza tezislari o'rin olgan.

Ilmiy to'plam Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, talabalari, magistrlar, tayanch doktorantura, doktorantura, mustaqil izlanuvchilar va soha mutaxassislariga mo'ljallangan.

Maqolalar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan, raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas'ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to'g'ri kelmasligi mumkin.

ISBN: 978-9910-09-586-3

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2025

-mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun raqamli infratuzilma va texnoparklar tashkil etish, yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishga davlat buyurtmalarini kengaytirish;

-raqamli bosma texnologiyalarni rivojlantirish va matbaa mahsulotlarini eksport qilish uchun yangi bozorlarni topish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-sonli “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF–4947-sonli “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni.
3. World Bank. *Uzbekistan Economic Update: Navigating Uncertainty*. Washington D.C., 2023.
4. International Monetary Fund (IMF). *Republic of Uzbekistan: 2024 Article IV Consultation Report*. Washington D.C., 2024.
5. United Nations Industrial Development Organization (UNIDO). *Industrial Development Report 2023: The Future of Industrialization in a Post-Pandemic World*. Vienna, 2023.
6. Krugman, P., Obstfeld, M., & Melitz, M. *International Economics: Theory and Policy*. 11th Edition. Pearson, 2022.
7. Stiglitz, J. E. *Globalization and Its Discontents Revisited*. W.W. Norton & Company, 2018.
8. https://stat.uz/ - O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi sayti ma`lumotlari asosida.

Berdimurodov Azizjon Shukrilloyevich - *SamISI, dotsent*
Xamroyeva Sitora Otabekovna - *SamISI, magistrant*

TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION JARAYONLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LIDA YASHIL TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda turizm sohasida innavatsion jarayonlardan foydalanish holatlari hamda bu yo‘lda yashil texnologiyalarning o‘rni hamda yashil iqtisodiyotning turizm sohasidagi qo‘llanilish istiqbollari haqida fikir mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlari: turizm, iqtisodiy samaradorlik, yashil iqtisodiyot, yashil texnologiyalar, mijozlar talabi,iqlim o‘zgarishi.

XXI asr texnologiyalari bugungi kunda xalq xo‘jaligining barcha sohalariga o‘z ta’sirini ko‘rsatayotgani va bu o‘z navbatida ushbu sohalarni jadal rivojlanishga olib borayotgani barchamizga ma’lum. So‘nggi bir necha yilliklarda texnologiya hayratlanarli darajada rivojlandi. Smartfonlar, internet, bulutli hisoblar va boshqa yuzlab ixtirolar hayotimizning barcha jabhalarini o‘zgartirmoqda. Aloqa, biznes,

hukumat, sayohat va hatto qishloq xo‘jaligi sohalari ushbu ixtirolar ta’sirida sezirali darajada ijobiy tomonga o‘zgardi. Shu jumladan bugungi kunda turizm sohasida ham yangi innovatsiyalar sababli ko‘plab yutuqlarga erishilmoqda. Aslida turizm sohasi rivojlanishi tarixini azaldan texnologiyalarsiz tassavur qilish mumkin emas. Ya’ni, turistlarning eng zaruriy vositasi bo‘lgan transportlar poezdlar va samolyotlarni turizmni rivojlantirishdagi ilk texnologiyalar desak adashmagan bo‘lamiz. Bugungi texnologiyalar asrida ham ushbu sohani rivojlantirishda ko‘plab ijobiy yangiliklar amalga oshirilmoqda. Jumladan turizmni rivojlantirishda asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan mehmonxonalarda sun’iy intellekt orqali turistlarga ko‘rsayilayotgan yangicha xizmatlar sayyohlarga yanada qulayliklar yaratmoqda va bu o‘z navbatida ularni ushbu davlatga yana qaytish istagini tug‘dirmoqda. Bugungi texnologiyalar, ishlab chiqarish sohalari jadal rivojlanayotgani sababli tabiatimiz ma’lum darajada zaharli gazlar bilan ifloslanmoqda, shu sababli keyingi kunlarda turistlar ham ekologik toza, sun’iylikdan yiroq bo‘lgan hududlarga tashrif buyurishni ma’qul ko‘rmoqdalar. Shunday ekan turizm sohasini eko, yashil texnologiyalar bilan rivojlantirish zamonaviylik va sog‘lom sayohatni bir nuqtada mujassamlashtirishi mumkin desak adashmagan bo‘lamiz.

Ushbu mavzu yuzasidan yurtimizning bir necha olimlari tadqiqodlar olib borganlar xususan, Bobomurad Mamarajabov o‘zining ingliz tilida chop etilgan “Tourism and Ecotourism in Uzbekistan” deb nomlangan monografyasida yurtimizda turizm sohasini ekologik jihatdan yanada rivojlantirish istiqbollari haqida izlanishlar olib borilgan. N.R.Zaynalovning “Turizmda axborot texnologiyalari” o‘quv qo‘llanmasida hamda professor I.S.Tuxliyev va A.Eshtayev tomonidan tayyorlangan “Turizmda geoaxborot tizimlari” darsligida axborot texnologiyalari va uning turizmda tutgan o‘rni va milliy turizm industryasidagi axborot jarayonlari, tutizm sohasida mavjud axborot texnologiyalarini qo‘llashda bilimlar berish bilan bir qatorda, ularda tizimli yondashuvni shakillantirishga qaratilgan bir necha fikr mulohazalar keltirilgan.

I.S.Tuxliyev, R.Hayitboyev, B.Sh.Safarov, G.R.Tursunovalar “Turizm asoslari” o‘quv qo‘llanmasida bozor munosabatlari sharoiti asosida turizmni rivojlantirishning asosiy tamoyillari va turizm to‘g‘risidagi me’yoriy hujjatlar, mahalliy, milliy va hududiy turizmni rivojlantirishning tamoyillari va metodlarini qo‘llash orqali sezilarli darajada iqtisodiy daromad olishga alohida e’tibor berilgan.
Ammo, yurtimizda yashil texnologiyalardan foydalangan holda innavatsion turizmni yanada rivojlantirish masalalari hali yetarlicha tadqiq etilmagan jihatdir.

Turizm sohasining jadal rivojlanishi tabiiy resurslarning haddan tashqari ishlatilishi, ekologik muammolar (iqlim o‘zgarishi, chiqindilar ko‘payishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi) va ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarni keltirib chiqarmoqda. Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, turizm global uglerod gazining 8% oshishiga sabab bo‘lib, bu ko‘rsatkich yil sayin oshib bormoqda. Buning bilan birga, turizm dunyo YaIMning 10%ini tashkil qiladi (2023-yilda 9 trillion dollar daromad). Bu paradoks turizmning iqtisodiy foydasi bilan ekologik zarari o‘rtasidagi dolzarb ziddiyatni keltirib chiqaradi. Yashil texnologiyalarni qo‘llash orqali turizmni qayta qurish ekologik stressni kamaytirish, resurslar samaradorligini oshirish va mahalliy hamda global miqyosda barqarorlikni

ta’minlash uchun yagona yechimdir. Masalan, Maldiv orollarida quyosh energiyasiga o‘tish mehmonxonalarning uglerod gazini 40%ga qisqartirdi.[129]

Yurtimizda ham aynan shu kabi rivojlangan davlatlar tajribalaridan samarali andoza olgan holda turizm sohasida yashil texnologiyalardan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish orqali yashil turizmni rivojlantirishimiz mumkin. Quyida yashil texnologiyalardan mexmonhona xo‘jaligida qay darajada foydalish mumkinligi haqida ko‘nikmalar keltirilgan:

1.Energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanish orqali mexmonhonalarda uglerod chiqindilarini shu bilan birgalikda xarajatlarni kamaytirishga erishish mumkin. Ularni qo‘llash usullari :

- Quyosh panellari — binoning tomiga o‘rnatilib, issiq suv va elektr energiyasini ishlab chiqaradi.
- LED yoritish tizimlari — oddiy lampalarga nisbatan 80% kam energiya sarflaydi.
- Aqlli energiya boshqaruv tizimlari (smart energy system) — xona band bo‘lmaganda avtomatik ravishda chiroq, sovutgich yoki isitkichni o‘chiradi.
- Issiqlik nasoslari va energiya qayta ishlash tizimlari — konditsioner chiqindilaridan issiqlik energiyasini qayta ishlatish.

2.Suv resurslarini tejash texnologiyalari orqali suvdan oqilona foydalanish va ortiqcha isrofgarchilikning oldini olish orqali suv tanqisligini bartaraf qilishga erishish mumkin:

- Aqlli dush va kran tizimlari — suv oqimini avtomatik boshqaradi (harorat va bosimni optimallashtiradi).
- Yomg‘ir suvini yig‘ish tizimi — sug‘orish va texnik ehtiyojlar uchun foydalaniladi.
- Suvni qayta tozalash tizimlari — yuvinish va kir yuvish suvlarini filtrlab, texnik foydalanishga yo‘naltirish.

3.Chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash tizimi orqali ekologik samaradorlikka erishish mumkin :

- Mexmonhonalarda va boshqa turistik hududlarda chiqindilarni ajratish (plastik, qog‘oz, organik, shisha) uskunalarini yo‘lga qo‘yish.
- Biologik parchalanadigan mahsulotlar (masalan, bambukdan tayyorlangan tish cho‘tkasi, qog‘oz stakanlar) dan foydalanishni yo‘lga qo‘yish.
- Kompostlash tizimlari — oshxona chiqindilarini tabiiy o‘g‘itga aylantirish.
- “Zero waste” dasturlari — bir martalik mahsulotlardan voz kechish, qayta foydalanish tizimini joriy etish.

4.Mexmonhonalarni yashil me’morchilik va dizaynni ekologik ko‘rinishga moslash orqali shahar shovqini va urbanizatsiyadan toliqqan mexmonlarga ruhan tetiklik baxsh etishi tabiiy.

- Tabiiy materiallar (yog‘och, bambuk, loy, tosh)dan foydalanish.
- Yashil tomlar va vertikal bog‘lar — havo sifatini yaxshilaydi, binoni issiqlikdan himoya qiladi.

[129]“ Turizm Maskanlarida Yashil Texnologiyani Joriy Etish Infratuzilmasining Ahamiyati” Abdullajonov Davronjon

- Tabiiy yorug‘likni maksimal ishlatish — katta derazalar, shaffof panellar. Yuqoridagilarni qo‘llash orqali sog‘lom mikroiqlim, past energiya sarfi, estetik jozibaga erishish mumkin.

5.Turizm sohasida transport asosiy xizmatlarga kiradi va transport vositalarini mijozlar talabiga mos tarzda ekologik harakatlanish imkonini yaratish bugungi kunda juda muhim hisoblanadi

- Elektr transport vositalari (velosiped, skuter, avtomobil)ni ijaraga berish.
- Elektr zaryadlash stansiyalari — mehmonxona avtoturargohida.
- Veloyo‘laklar — qisqa masofalar uchun ekologik harakatlanish orqali uglerod chiqindilarini kamaytirish va bu orqali mehmonlarga qulaylik yaratish mumkin.

Yuqorida keltirib o‘tilgan dunyo miqqiyosidagi tajribalarni yurtimiz mexmonhonalarida ham qo‘llash orqali turizm sohasining davlatimiz iqtisodiyotidagi ulushini yanada oshirish mumkin. Bugungi kunda turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, turizm atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan omillardan ham biridir. Shu sababli, barqaror va innovatsion turizmni rivojlantirishda yashil texnologiyalardan foydalanish zaruriy ehtiyojga aylanmoqda. Innavatsion texnologiyalar barcha sohalarni qamrab olayotgan bir paytda turizm sohasida ham ayniqsa yashil texnologiyalarning o‘rni alohida hisoblanadi. Kundan kunga sun’iylikning hayotimizda oshib borayotgani sababli insonlarda tabiiylikga bo‘lgan ehtiyoji oshib bormoqda. Shu sababli yurtimizga turistlarning oqimini oshirish maqsadida yashil texnologiyalardan foydalanish ulushini oshirish lozim. Yashil texnologiyalar turizm sohasida innovatsion yondashuvni shakllantiradi, ekologik xavfsizlikni ta’minlaydi va turistlar uchun yanada jozibador muhit yaratadi. Innovatsion turizmni rivojlantirishda yashil texnologiyalarni keng joriy etish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki O‘zbekistonning xalqaro turizm maydonidagi raqobatbardoshligini ham mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi to‘g‘risida”gi PQ–4477-son qarori, 2019-yil.

2. Sharipov A. “Barqaror turizm va ekologik menejment”. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.

3. UNWTO (World Tourism Organization). “Sustainable Tourism and Green Technologies”, 2023.

4. OECD. “Innovation for Sustainable Tourism”. – Paris, 2021.

Жўраев Беҳзод Нуралиевич - *PhD, доцент в.б., ТДИУ Самарқанд филиали*

ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШ ЙЎЛЛАРИ

Аннотация. Мазкур мақола рақобат шароитида тадбиркорлик субъектлари инновацион фаолиятини қўллаб-қувватлаш ва уни тартибга солишнинг